

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY TADQIQOTLAR

Onlayn ilmiy jurnal

Mudarris
ILMIY JURNAL



Jild: 03 Nashr: 4 (2024)

www.mudarrisziyo.uz

ISSN: 2992-8931



MAVZU SOHASINING KONTSEPTUAL MODELI ASOSIDA MALAKAVIY AMALIYOT HISOBTLARINI TAQDIM ETISH VA KUNDALIK YURITISH UCHUN VEBGA ASOSLANGAN INTELLEKTUAL TIZIMNI ISHLAB CHIQISH

Gulnora Yodgorovna Buronova
Bukhara State University, p.f.f.d. dotsent

Shaxzod Habibov No`mon o`g`li
Bukhara State University, 10 -1KT - 23 guruh, 1-bosqich magistranti

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi

So'nggi o'n yilliklarda axborot texnologiyalarining faol rivojlanishi ularning, jumladan, ta'lif jarayoniga keng joriy etilishiga olib keldi. Asta-sekin o'quv faoliyatida turli xil axborot texnologiyalaridan foydalanish qoidadan istisno emas, balki qoidaga aylandi.

Tadqiqotning dolzarbligi elektron ta'lim va test tizimlarini, shu jumladan intellektual texnologiyalarni qo'llash orqali takomillashtirish zarurati bilan bog'liq. Uchinchi avlod oliy kasbiy ta'limi uchun yangi federal davlat ta'lim standartlarini joriy etish "kompetentlik" kontseptsiyasiga asoslangan talabalar bilimini monitoring qilishda yangi yondashuvni o'rnatdi. Talabalarning universitetda o'qish davomida egallagan malakalarini baholash imkonini beruvchi intellektual o'qitish tizimini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqot mavzusining rivojlanish darajasi

Elektron ta'lim tizimlari sohasidagi tadqiqotlarni Bashmakov A.I., Bashmakov I.A., Petrushin V.A., Solovov A.V., Dobryakov A.A., Karpenko A.P., Popov D.I., Popova E.D. va boshq.

Intellektual o'qitish tizimini o'rganishga muhim hissa Atanov G.A., Pustynnikova I.N., Carbonell J. (AQSh), Brusilovskiy P.L. (AQSh), Burdo J. (Kanada), Nkambou R. (Kanada), Wolf B.P. (AQSh), Graesser A.S. (AQSh), Mizoguchi R. (Yaponiya) va boshqalar. Ularning ishlarida intellektual o'qitish tizimini rivojlantirishning ham nazariy, ham amaliy masalalari ko'rib chiqiladi. Biroq, ular taklif qilayotgan tizimlar zamonaviy O'zbekiston Respublikasi oliv ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini etarli darajada aks ettirmaydi.

Har bir davlatning istiqboli ilm-fan, texnika, talim taraqqiyoti bilan barkamol kadrlarni voyaga yetkazish bilan bog‘liqdir. Malakaviy amaliyot bakalavr yo‘nalishdagi talabalarning oliv o‘quv yurtida olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonining izchil davomi sanalib, bakalavriyat yo‘nalishi bo‘yicha olingan nazariy bilimlarni mustahkamlsh va mazkur bilim, ko‘nikma, malakalarini bevosita talim-tarbiya jarayoniga qo‘llash imkoniyatini beradi. Malakaviy amaliyot tashkilotlar, ta’lim muassasasida (maktabdan tashqari muassasalari, mahalla, maxsus maktablar, mehribonlik uylarida, oromgohlar) bo‘lajak mutaxassislarning tashkiliy, konstruktivlash, rejalashtirish, kommunikativ tadqiq qilish kabi kasbiy va pedagogik mahoratni shakllantirishgina emas, balki ularning kasbiy xususiyati va mutaxassis shaxsiga qo‘ygan talabidan kelib chiqqan holda individual va insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirishga qaratilgandir. Malakaviy amaliyotning asosiy maqsadi bo‘lg‘usi mutaxassislarni tashkilotlar, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari,

oromgohlarda o‘quv, tarbiyaviy ishlarga kasbiy pedagogik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Agar talabalar bilimlarini amaliyotda qo‘llanishi, hayotga tatbiq etishni o‘rgansalar va bu jarayonda nazariy xulosalarga kelsalar ularning olgan bilimlari qatiy ishonchga aylanadi. Amaliyot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining kasbiy-pedagogik xislatlari shakllanishida o‘z-o‘zini tarbiyalashning kuchayishi ko‘mak beradi. Malakaviy amaliyotning birinchi kunidayoq talabalardan asosiy ijtimoiy vazifa, ya’ni har tomonlama rivojlangan yetuk insonni shakllantirish, yosh avlodni hayotga va faol mehnatga tayyorlash talab etiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, malakaviy amaliyot davrida talabalarning ishi ijodiy xarakterga bo‘lishi lozim. Talabalar o‘z kasbiy majburiyatlarini ijodiy bajarsa pedagogik topshiriqni hal qilishining samalrali shakl va usullarini qidirsa, o‘zi tanlagan kasbiga munosabati, pedagogic faoliyatga qiziqishi kasbiy mahorati oshib boradi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda malakaviy amaliyot ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish maskani mahorat maktabi hisoblanadi.

Malakaviy amaliyot – bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda o‘quvpedagogik jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Malakaviy amaliyot namunaviy va ishchi o‘quv rejasiga mos ravishda amalga oshiriladi. Malakaviy amaliyotning mazmumni amaliyot turiga qarab, kafedrada ishlab chiqilgan dasturiga mos bo‘ladi. Malakaviy amaliyot o‘quv mashg‘ulotlaridan ajralgan holda tashkil etiladi. Malakaviy amaliyotni talabalar oliy ta’lim muassasasi bilan shartnomaga tuzilgan tashkilotlarda o‘tashlari mumkin. Ayrim hollarda bitiruvchi kurs talabalari o‘zi ishlashni rejalashtirayotgan ta’lim muassasalarida faol malakaviy amaliyotni o‘tashlari mumkin. Talabalarning malakaviy amaliyotni o‘tash joylari oliy ta’lim muassasasi rektori tomonidan chiqarilgan buyruq asosida tashkil etiladi.

Malakaviy amaliyot maqsadi - bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish, pedagogik va kasbiy faoliyat ma’suliyatini his etish va o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, shuningdek, tajribali mutaxassislarning ish faoliyatini o‘rganishdan iborat. Malakaviy amaliyot vazifalari:

- Talabalarda tanlangan kasbiga qiziqishni takomilashtirish; ⚭ Kasbiy faoliyat haqida bir butun tushunchani shakllantirish;
- Kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- Kasbiy faoliyat bo‘yicha tajribani yaratish.
- Talabalarning olgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, mustahkamlash va ularni amalda qo‘llashga o‘rgatish.
- Mustaqil va ijodiy ishlashga, ilg‘or tajribalarni muntazam o‘rganishga, kasbiy faoliyatda ijodkor bo‘lishga undash.
- Mutaxassislik fanidan bilimlarini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish.
- Amaliyotchilarining o‘zlariga biriktirilgan ishlarni mustaqil ravishda tashkil etishiga erishish.
- Mutaxassislikdan dars tiplariga, dars o‘tishning ilg‘or usullariga, zamonaviy metodlarga alohida e’tibor berish.
- Mutaxassisli darslarini ko‘rgazmali quollar, texnika vositalaridan unumli foydalangan xolda o‘tishlariga erishish.
- Kengaytirilgan dars ishlanmalari tuzdirish.
- Tajribali mutaxassislar, o‘qituvchilar ish faoliyatini kuzatish, o‘rganilgan faoliyat yuzasidan muhokama tashkil qilish.

- Amaliyotchilarning bir-birlarining darslarini muntazam kuzatib borishlarini nazorat qilish. Kuzatilgan darslarni o'sha kuniyoq tahlil qilib, yutuq-kamchiliklarini aytish. Metodik maslahatlar berish, zarur yo'lyo'riqlar ko'rsatish.
- Bo'lajak mutaxassislarda rahbarga xos kasbiy malaka va ko'nikma hosil qilish, kasbiy mahoratlarini shakllantirish.
- Malakaviy amaliyot jarayonida mustaqil holda ish faoliyatini tashkil etishga o'rgatish.
- Sinf rahbarligini olib borish, tarbiyaviy ish, odobnomaga mashhg'ulotlari, madaniy-ma'rifiy tadbirdorda ishtirok etish.

Malakaviy amaliyot davrida talabalar olib borgan o'quv-tarbiyaviy ishlari, kuzatishlari bo'yicha kundalik daftар yuritadilar. Unda amaliyot dasturi bo'yicha olingan topshiriqlarning bajarilishi xaqidagi ma'lumotlar, o'quv-pedagogik tavsifnomaga taalluqli ma'lumotlar ifodalanadi. Amaliyot yakunida hisobotlar tayyorlashda talabalar daftardan foydalanadilar. Gurux rahbari, pedagogika, psixologiya va mutaxassislik kafedrasi o'qituvchilaridan iborat komissiya taqdim etilgan hujjatlar va tavsifnomaga asosan talaba bajargan ishlarga tegishli ballarda baho qo'yadi. Baho nazoratining reyting tizimi asosida qo'yiladi. Malakaviy amaliyotining yakuniga bag'ishlab o'quv yurtida yakuniy konferensiya o'tkaziladi.

Talabaning pedagogik amaliyot jarayonida tayyorlashi lozim bo'lgan hujjatlar:

1. Amaliyotchi talabaning amaliyot rejasi
2. Kundalik
3. Ish reja (o'quv predmetlari bo'yicha)
4. Dars tahlili
5. Dars konspekti
6. Tarbiyaviy soatlar konspekti
7. Tarbiyaviy ish reja
8. Tarbiyaviy tadbir ssenariyasi
9. Sinf rahbari hujjatlari
10. O'quvchi va sinf jamoasiga pedagogik-psixologik tavsifnomasi
11. Tavsifnomasi
12. Hisobot

Malakaviy amaliyot talabalarda kasbiy faoliyatning mazmuni, maqsadi va usullarini chuqr anglashlarini ta'minlab, o'z navbatida ularning ishlab chiqarish jarayoni muhitiga kirishishi, adaptatsiyalashuviga hamda muhandislik sifatlarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Pedagogik kuzatishlar natijalari oliy ta'lim tizimida malakaviy amaliyotni tashkil etish va o'tkazishda bir qancha kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha qo'mitasi (UNESCO) va konsalting tashkiloti (DGP Research & Consulting) hamkorligida jalg qilingan nufuzli xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan 2017 yilning yanvar -iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini kompleks o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijalari asosida berilgan xulosalarda oliy ta'lim

jarayonida nazariya va amaliyot yaxlitligi ta'minlanmaganligi, talabalarning malakaviy amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalarida o'tkazish samarali tashkil etilmagani oqibatida bitiruvchilarning aksariyat qismi tayyor mutaxassis bo'lib chiqish o'rniga ishga joylashgandan keyin qaytadan o'z kasbini, mutaxassisligini o'rganayotganligi, shuningdek, ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmi zamonaviy talablarga javob bermasligi, ta'lim muassasalarida malakali pedagog va boshqaruv kadrlarining yetishmasligi, xorijiy ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi kabi kamchiliklar qayd etilgan1 . Amaliyotni o'tkazish bo'yicha dasturiy ta'minotning zamonaviy talablarga mos emasligi; amaliyotni tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning samarali metodlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi; amaliyot natijalarini baholash tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagani kabi muammolar uni tashkil etish va o'tkazishga innovatsion yondashuv zarurligini taqozo etadi. Innovatsion texnologiyalar sharoitida talabaning amaliy-kasbiy tayyorgarligi mazmunini yangilash, malakaviy amaliyotlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammolaridan biri sanaladi. Ma'lumki, innovatsion ta'lim texnologiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardir. Mazkur texnologiyalar talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda mustaqil ishslash va ikki tomonlama muloqot muhitini yaratadi, har bir talabaning bilish imkoniyatlarini hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Nazorat topshiriqlari natijalarini har bir modul bo'yicha baholashda quyidagi mezonlarga asoslanishni tavsiya etamiz. Amaliyotni yakuniy baholashda esa modullar bo'yicha to'plangan ballarning o'rtacha qiymati hamda hisobot davridagi amaliyotchining faolligi, kasbiy sifatlarini namoyon eta olganligini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kasbiy ta'limda ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish va baholashni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish amaliyot natijalarining samarali bo'lishini ta'minlabgina qolmay, mehnat bozorida raqobatlasha oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratadi.

Pedagogik kuzatishlar va faoliyatimiz natijalari quyidagi xulosa va tavsiyalarni shakllantirishga imkon berdi:

1. Ishlab chiqarish amaliyotini modulli texnologiya asosida tashkil etish amaliyotchi faoliyatini to'g'ri rejlashtirilishini ta'minlaydi. Shuning uchun xar bir modul uchun tuzil gan dastur sodda va amaliyotchi uchun tushunarli bo'lishi, o'rganilayotgan ob'ekt va jarayonning texnologiyasi, jihozlari va muammolarini o'rganishga imkon yaratishi lozim;
2. Modul dasturi asosida har bir moduldagi muayyan topshiriqlarni mustaqil o'rganish va bajarish, amaliyotchida mustaqil ishslash, o'rganish, bilmaganini so'rash, ishlab chiqarish muhitida boshqalar bilan munosabatga kirishish kabi ko'nikmalarni shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli amaliyotchilarga korxonadan amaliyot rahbarini tayinlashda, ularning kasbiy mahorati, ustozlik sifatlarini e'tiborga olish lozim.
3. Har bir modul bo'yicha o'rganilgan bilimlarni ishlab chiqarish muammolari bilan bog'liq bo'lgan keys topshiriqlari asosida baholanishi orqali, amaliyotchilarning muhandislik sifatlarini shakllanishiga, kasbni o'zlashtirish jarayoniga moslashishiga, sohaga nisbatan qiziqish va ijobjiy motivatsiyaning shakllantirishiga zamin yaratiladi. Shu sababli, keys topshiriqlarini tuzishda uning modul mazmuniga mosligiga, ishlab chiqarish muammolarini qamrab olganiga va talabalarning intellektual qobiliyatlariga e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Aliev I.T. Pedagogik amaliyotni tashkil etish. –T.: “Fan va texnologiya”. – 2014. - 56 b.
2. Rozov V. K. Pedagogik amaliyot. T., - 1985. – 24 b.
3. Лазарева, О. Ю. Разработка веб-сервиса визуализации когнитивной карты предметной области для использования в интеллектуальной обучающей системе / О. Ю. Лазарева, Т. С. Грушина // Вестник МГУП имени Ивана Федорова. — 2015. — №1. — С. 123–129.
4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B..Innovatsion ta'lif texnologiyalari. Toshkent: «Sano-standart» 2015. 11-bet